



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

| № | MUNDARIJA | Page |
|-----|---|------|
| 1. | TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i> | 4 |
| 2. | O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i> | 8 |
| 3. | ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i> | 12 |
| 4. | QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i> | 16 |
| 5. | SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i> | 19 |
| 6. | SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i> | 24 |
| 7. | TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i> | 27 |
| 8. | KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i> | 30 |
| 9. | XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i> | 33 |
| 10. | MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i> | 37 |
| 11. | KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i> | 41 |
| 12. | XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i> | 44 |
| 13. | XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i> | 47 |
| 14. | ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i> | 52 |
| 15. | XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i> | 56 |
| 16. | IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i> | 61 |
| 17. | ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i> | 65 |
| 18. | ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i> | 70 |

| | | |
|----|--|----|
| 19 | TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i> | 74 |
| 20 | RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i> | 76 |
| 21 | НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i> | 80 |
| 22 | THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i> | 84 |
| 23 | O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'lqin qizi</i> | 88 |
| 24 | O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i> | 90 |
| 25 | IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i> | 92 |
| 26 | GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i> | 96 |

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI

Mamatova Fotima Abdusalomovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7231-6077>

Annotatsiya: maqolada globallashuv sharoitida texnologik taraqqiyotning rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari xamda texnologik qonuniyatlarga ta'siri va unda raqamli iqtisodiyotni o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, texnologiya, bazisli, ilmiy tadqiqot ishlanmalari, institutsional tuzilma, transformatsiya, paradigma, raqamli iqtisodiyot, blokcheyn, tizim.

Abstract: This article explores the scientific and theoretical foundations of technological progress in the context of globalization, its impact on the patterns of technological development, and the role of the digital economy in this process.

Keywords: globalization, technology, basic technologies, research and development (R&D), institutional structure, transformation, paradigm, digital economy, blockchain, system.

Абстрактный: В статье раскрыты научно-теоретические основы развития технологического прогресса в условиях глобализации, его влияние на технологические закономерности, а также роль цифровой экономики в данном процессе.

Ключевые слова: глобализация, технология, базисные технологии, научно-исследовательские разработки, институциональная структура, трансформация, парадигма, цифровая экономика, блокчейн, система.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni tobora kuchayib borayotgani va raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanib borishi o'z navbatida takror ishlab chiqarish tizimi va uning institutsional tarkibiy tuzilmasida tub o'zgarishlarni yuzaga kelishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sifat o'zgarishlari bular bilan bir qatorda innovatsion rivojlanish sur'atlarini jadallashtirish, kapital va inson resurslaridan yanada samarali foydalanishni shartlamogda. "Jahon ilmiy-texnika salohiyatining 90% va global yuqori texnologiyalar bozorining 80% Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda[1]". Bu esa hozirda jahonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarning dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatmoqda.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadigan yangi texnologik uklad talablariga mos keluvchi iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasini transformatsiyalash, sun'iy intellekt yordamida resurslarni oqilona taqsimlash va transaksion xarajatlarni pasaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli iqtisodiyot asosiy "drayver" sohaga aylantirilib, uning hajmini kamida 2,5 barobar oshirish belgilangan[2]".

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Yuqori fan sig'imli texnologiyalarning iqtisodiy tizimning tarkibiy tuzilmasiga ta'sirini tadqiq etgan xorijlik olimlarga T.Kun, K.Rers, M.S.Roko, D.Bell, Y.Shumpeter, S.Klark, P.Arnold kabilarni keltirish mumkin.

Rossiyalik olimlardan Vasilevskiy E., Inozemsev V.L., Klimovich M.A., Krasilnikov O.Yu., Kondratev N.D., Butorina O.V., Kraves A.V., Suxarev O.S. va boshqalar ushbu mavzuga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekistonlik olimlardan S.S.Gulyamov, A.V.Vaxabov, S.V.Cherep, T.T.Jo'raev, A.N.Erkaev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yangi texnologik ukladning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini shakllantirish masalalari bo'yicha atroflicha tadqiqotlar olib borilgan.

"Yangi klassik maktab" doirasida institutsionalist olimlar; P.Lukas, P.Romer va A.Yang tomonidan ilmiy va texnologik taraqqiyotning

tabiatini va innovatsiyalarning vujudga kelish sabablarini batafsil tahlil qilishdi[3].

O.S.Suxarevning fikriga ko'ra, "mavjud texnologik asos, mintaqaviy ehtiyojlar, mavjud resurslar va erishilgan mehnat unumdorligi darajasiga muvofiq takror ishlab chiqarish, tarqatish va almashish mexanizmlari ta'siri ostida yuzaga keladigan o'zaro bog'liq nisbatlardagi o'zgarishlarning murakkab tizimi[4]. O.Yu.Krasilnikov nuqtai nazaridan, "tarkibiy o'zgarish-makroiqtisodiy tizimning taqqoslanadigan elementlari o'rtasidagi munosabatlarning sifat jihatidan o'zgarishi, ularning miqdoriy xususiyatlarining nisbati notekis dinamikasi[5].

O'zbekistonlik olimlardan A.N.Erkaev tadqiqotlariga ko'ra tarkibiy takomillashtirishlar iqtisodiy kategoriya sifatida tarkibiy elementlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishini aks ettiradi[6].

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, цели и методы исследования)

Mazkur tadqiqotda globallashuv sharoitida texnologik taraqqiyotning rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishda umumiy ilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlar tahlili usuli orqali globallashuv sharoitida texnologik taraqqiyotning rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari o'rganildi hamda umumlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida texnologik taraqqiyotning texnologik qonuniyatlarga ta'siri va unda raqamli iqtisodiyotni o'rni ochib berilgan va xulosalar shakllantirildi. Statistik tahlil usulidan foydalangan holda texnologik taraqqiyotda raqamli iqtisodiyotni o'mi baholandi. Tadqiqot natijalarini asoslash maqsadida dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

Texnologik o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiyotdagi tarkibiy takomillashtirishlarni ta'minlovchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, bugungi kunda texnologiya nafaqat moddiylashgan shakldagi bilim, balki mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan tizimlashgan usullar majmui, masalan, nou-xaudir[7]. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif "texnologiya" ta'rifining mohiyatini to'g'ri ifoda etadi, uni resurslarni yakuniy mahsulotga

transformatsiyalashuvi usuli sifatida ham, bilim shakli sifatida ham ifodalaydi.

Iqtisodiy adabiyotda keng miqyosda turli xil texnologiyalarning tavsifi mavjud. Chet el adabiyotlarida yuqori texnologik texnologiyalar xizmat ko'rsatish sohasida qo'llaniladigan texnologiyalar, ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'llaniladigan texnologiyalar sifatida ta'riflanadi. O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham bu tushunchalar deyarli bir xil. Texnologiyalarning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, bugungi kunda keng qo'llanilayotgan "muhim", "kritik", "bazisli", "portlatuvchi" texnologiyalar, "kelajak texnologiyalari" va hokazo atamalar hisoblanadi.

1-jadvalda keltirilgan iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IXTT) tomonidan taklif etilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini texnologik samaradorlik darajasi bo'yicha tasniflashga alohida e'tibor qaratish lozim. Tarmoqlar uchun tasnifiy xususiyatlarga tarmoqning qo'shilgan qiymatida ilmiy tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarini foizdagi ko'rsatkichi hamda sanoat yalpi mahsulotida ilmiy tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarining foizdagi ko'rsatkichi kiradi.

1-jadval

Globallasuv sharoitida sanoatning qayta ishlab chiqarish tarmoqlarini IXTT metodologiyasi bo'yicha texnologik darajasiga ko'ra tasnifi[8]

| Yuqori texnologiyali tarmoqlar | Yuqori darajadagi o'rta texnologiyali tarmoqlar | O'rta texnologik quyi darajali tarmoqlar | Quyi texnologik tarmoqlar |
|--|--|---|---|
| Uchuvchi va kosmik apparatlar; farmasevtika; ofisli, hisoblash va elektron hisoblash texnikasi; radio, televideniya va kommunikatsiya qurilmalari; tibbiy, yuqori aniqlikdagi optik qurilmalar | Elektr mashinalar va apparatlar; avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar; boshqa kimyoviy moddalar, dori vositalari; temir yo'l texnikasi va transport jihozlari; mashina va uskunalar. | Neftni qayta ishlash mahsulotlari va yadro yoqilg'isi; kauchuk va plastik mahsulotlar; boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish; qurilish va kema va qayiq larni ta'mirlash; asosiy metallar; tugatilgan metall buyumlar, mashina va jihozlardan boshqa | Ishlab chiqarish; qayta ishlash; yog'och va yadro mahsulotlari va selyuloza, qog'oz, qog'oz mahsulotlari, poligrafiya va nashriyot; oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki; to'qimachilik mahsulotlari, teri va poyafzal |

Texnologik hayot tarzi va texno-iqtisodiy paradigmaning zamonaviy tushunchalarining sinonimi G.Mensh tomonidan taklif qilingan texnologik metodning ta'rifidir[9]. Texnologik metod ostida olim har bir Kondratev to'liqini uchun sanoat tuzilmasini tashkil etuvchi texnologik qarorlar majmuisini tushungan.

T.Kun iqtisodiyotning texnologik tuzilmasidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi dastlabki element sifatida ilmiy inqiloblar kontekstidagi paradigma tushunchasini taklif qildi. U iqtisodiy kategoriya sifatida muomalaga kiritib, uni umumiy tirof etilgan ilmiy yutuqlar deb belgiladiki, ma'lum vaqt mobaynida ilmiy jamoatchilikka muammolar va ularni hal etish yo'llarini belgilash modelini taqdim etadi[10] deb ta'riflanadi. T.Kunning ilmiy inqiloblar konsepsiyasi Dj.Dos tomonidan ta'ldirildi. Dj.Dos iqtisodiy va institutsional omillar ta'sirida shakllanadigan texnologik paradigmani o'ziga xos texnologik troektoriyalarga amal qiluvchi texnologik yangiliklar majmui sifatida aniqladi[11].

Texnologik ukladlar va texnik-iqtisodiy paradigmalarni o'rganish bilan shug'ullanadigan yetakchi rus olimlari S.Glazev va K.Rerslardir. S.Glazev texnologik ukladning quyidagi ta'rifini beradi: "birlamchi resurslarni qazib olish, ularni qayta ishlashning barcha bosqichlari va tegishli xalq iste'moli turlari talablariga javob beradigan yakuniy mahsulotlar to'plamini ishlab chiqarish kabi yopiq sikl amalga oshiriladigan yaxlit va barqaror shakllanish"[12]. Har ikki olim ham ilmiy va texnologik taraqqiyot orqali iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish haqida fikr keltiradi, ya'ni yangi texnologiyalar rivojlanishining kumulyativ ta'siri ishlab chiqarish rivojlanishining yangi bosqichga olib chiqadi.

K.Rersning fikricha, texnik va iqtisodiy paradigmalarning davomiyligi 48 yildan 68 yilgacha o'zgarishi mumkin. Tarkibiy

tuzilmaviy takomillashtirishlar texnologik inqilobga olib keladi va uning o'ziga xos yangi iqtisodiy, institutsional, texnik va ijtimoiy mexanizmlar bilan yangi paradigmaning shakllanishiga olib keladi. U iqtisodiyotning texnologik tuzilmasini takomillashtirishda tarmoqlarning rolini baholash asosida tashuvchi, harakatlanuvchi va qabul qiluvchi tarmoqlarini aniqlaydi. Tashuvchi tarmoqlar yangi texnologik rivojlanishning flagmanlari bo'lgan tarmoqlarga tez moslashuvchan va yangiliklarni tez qabul qiluvchi tarmoqlarni anglatadi. Harakatlanuvchi tarmoqlar yangi texnologiyalarning tarqalishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi va tashuvchilarni nisbatan qo'llab-quvvatlaydi. Rivojlanishi muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional o'zgarishlar bilan rag'batlantiriladigan qabul qiluvchi tarmoqlarning roli shundaki, ular texnologik innovatsiyalarni ommaviy tarqatishga yordam beradi[13].

Texnologik qonuniyatlarni tahlil qilishda eng muhimi ishlab chiqarish ukladini global transformatsiyasini texnologik inqiloblar prizmasi orqali ko'rib chiqadigan konsepsiyasi tushuniladi. Hayotning barcha sohalarida yangi texnologiyalarning jadal kirib kelishi va rivojlanishi yangi texnologik o'tishga va yangi texnologik ukladlarning o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiy tizimlar va ijtimoiy tuzilmalardagi tub o'zgarishlar sanoat inqiloblari natijasida yuzaga keladi. Iqtisodiyotning siklik tabiati 100-120 yil davom etgan to'liqlar bilan ifodalanadi: 50-60 yilda mavjud ilmiy va texnologik paradigmani tubdan o'zgartiradigan asosiy texnologiyalar, 35 yilda – yangi texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy o'sish, 25 yilda-bu pasayish ya'ni texnologiyalarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini cheklanishi va pasayishi. Shunday qilib, davrning taxminan yarmi texnologik tayyorgarlik va qolgan yarmi-uni amalga oshirish uchun to'g'ri keladi. Sanoat inqiloblarining asosiy parametrlari va xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Sanoat inqiloblarining asosiy xususiyatlari[14]

| Davrlar | Texnologiyalar va resurslar | Rivojlanish omillari | Oqibatlar | Kooperatsiya shakllari |
|---|---|--|--|--|
| XIV-XVII asrlar. | Yog'och, topf, dastgohlar, dengiz floti, shamol dvigateli, manufaktura, savdo | Mehnat taqsimoti, yangi qit'alarini kashf etish, xalqaro savdo | Mehnat unumdorligining o'sishi, kapital jamg'arish | Ishlab chiqarish, klaster, qurilish |
| XVIII-XIX asrlar | Ko'mir, cho'yan, temir, bug' dvigateli, bug' lokomotivi, paroxod, mexanik qishloq xo'jalik mashinalari | Yangi energiya manbalari, mashina mehnati | Xalqaro taraqqiyot, farovonlikning o'sishi | Tomonidan ishlab chiqilgan zavod |
| XIX-XX asrlar. | Neft, po'lat, aluminiy, plastmassa, elektr, konveer, telefon, telegraf, ichki yonuv dvigateli, elektr dvigatel, avtomobil, samolyot, suniy yo'ldosh | Enepgiya uzatishda foydalanishning yangi manbalari va shakllari, yangi materiallar, transport va kommunikatsiya rivojlantirish | Globalizatsiya, jismoniy chegaralar va resurslarni qayta taqsimlashga kirish | TNK, tadqiqot etish |
| XX – asrning ikkinchi qismi va XXI asrni boshlanishi. | Gaz, atom energiyasi, elektronika, PO, ASU TP, telekommunikatsiya, TV, internet | Yangi energiya manbalari, ishlab chiqarish va savdoni avtomatlashtirish, kommunikatsiyalar-ni rivojlantirish | Ijtimoiy taraqqiyot va xalqaro integratsiya | Platformalarni programmallashtirish |
| XXI asrni boshi | Internet, robotlar, sun'iy aql, o'yin texnologiyalari va veytual haqiqat, muqobil energiya (quyosh, shamol, termoyadroli, | Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini integratsiyalashtirish, robotlashtirish va shu bilan birga biznes-jarayonlarning | Avtonomiyalar, individual ishlab chiqarish, gorizontal hamkorlik, yangi ijtimoiylashtirish, yerdan | Ekotizimlar, modellash, tarmoqni tugatish jarayonlari, tizimni ishlab chiqish, dizayn va |

| | va boshqalar.), kompozitsion materiallar, nanotexnologiya, biotexnologiya, taqsimlangan moliya tizimi, kosmik tadqiqotlar | o'zaro bog'liqligi | tashqariga chiqish | rivojlanishning texnologiyalari |
|---------------------------------------|---|---------------------|--|--|
| XXI asrning 2010 yildan shu davrgacha | Mobil internet, Aqliy mehnatni avtomatlashtirish, Buyumlar interneti, Bulutli texnologiyalar, Blokcheyn texnologiyalar, raqamli platformalar va tapmoqli tuzilmalar | Raqamli iqtisodiyot | Iqtisodiy va ijtimoiy turmushning turli sohalarida o'zgarishlarining asosiy omili internetning mavjudligi xisoblanadi. | Blokcheyn texnologiyalar, raqamli platformalar va tapmoqli amalga oshadi |

Iqtisodiy tizimning evolyusiyasidagi takomillashtirishlar uning tarkibiy dinamikasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning texnologik tuzilmasini rivojlantirish sharoitida texnologik ukladlarni almashirish jarayonida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotni tarkibiy tuzilmaviy takomillashtirishlarning boshlang'ich nuqtasi bo'lib tarkibiy o'zgarishlarning asta-sekin miqdoriy to'planishi, uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi ziddiyatlardir. To'plangan ziddiyatlar tarkibiy inqiroz davrida yangi texnologik tartibning genezisi sabab bo'lgan tarkibiy uklad mexanizmi orqali hal etiladi. Avvalgi texnologik ukladning yakuniy bosqichida paydo bo'lgan texnologiyalar keyingi texnologik ukladni tug'ilishini boshlaydi. Asta-sekin yangi texnologiyalar ishlab chiqarishni kengaytirish va investitsiyalarni jalb etish manbaiga aylanadi. Iqtisodiy o'sish davri boshlanadi, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi transformatsiyalanadi: iqtisodiyotning yangi tarmoqlari va sohalar paydo bo'ladi, shuningdek, iqtisodiy tizim elementlari o'rtasidagi, o'zaro bog'liqliklar va elementlar o'rtasidagi nisbatlar o'zgaradi. Natijada nafaqat iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi, balki jamiyat hayotining boshqa sohalarini ham o'zgartiruvchi yangi texnologik uklad bo'lgan raqamli iqtisodiyot shakllanadi.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida qo'llanilib kelinayotganligiga hali uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Biroq dunyo tendensiyasi shuni ko'rsatayaptiki, barcha rivojlangan davlatlar uni shakllantirishga allaqachon kirishgan. O'zbekiston ham mazkur jarayondan chetda qolmasligi kerak. Zero, biz globallashuv, dunyo hamjamiyati bilan integratsiyaga kirishish haqida

gapirarkanmiz, bu borada o'zgarigan, ya'ni yangilangan iqtisodiyot ravnaqi muhim sanaladi[15].

Bugungi kunda ilg'or rivojlangan industrial mamlakatlar iqtisodiyotida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi raqamli iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanishi hamda tarkibiy tuzilmaviy takomillashtirishlarning shart-sharoitlari omili hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kripto valyutalarni tushunish kerak emasligi, balki shu bilan birgalikda raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushunilishini ko'rsatadi[16].

Raqamli iqtisodiyot – katta hajmdagi ma'lumotlarni (BIG DATA) Internet tarmog'i va mobil texnologiyalar orqali yig'ish va raqamli texnologiyalar yordamida qayta ishlab, yangi qonuniyatlarini va bilimlarni yaratish asosida biznes modellarni samaradorligini oshirish va iste'molchilarni ehtiyojlarini sifatli qondirish hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy AKT va raqamli texnologiyalar makro, tijorat va xizmatlar tuzilmalari darajasida boshqaruv usullari samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar davlatning nazorat, tartibga solish va boshqaruv funksiyalarini keskin kamaytiradi. Blokcheyn davlat organlari harajatlarini minimal darajaga tushiradi.

«Blokcheyn» atamasining ma'nosi «Blok» – bu blok, «cheyn» – bu zanjir. «Blokcheyn» – bu blokli zanjir demakdir. «Blokcheyn» texnologiyalari (ma'lumotlarning taqsimlangan reestri texnologiyalari), «sun'iy aql», superkompyuterlar imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat jahonning ko'plab mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bloklar – bu kriptografiya shaklida namoyon bo'lgan, tizim ichidagi bitim va shartnomalar, transaksiya haqida ma'lumotdir. Dastlab va hozirgi kunga qadar blokcheyn Bitcoin kriptovalyutasining asosi hisoblanadi. Barcha bloklar zanjirga tizilgan bo'lib o'zaro bog'langan. Blokcheyn texnologiyasida barcha ishtirokchilar blokcheyn tizimiga ulanganligi tufayli barcha operatsiyalar sub'ektlar o'rtasida to'g'ridan – to'g'ri amalga oshiriladi.

Xulosa (Conclusion, Заключение)

Xulosa sifatida raqamli iqtisodiyot – mavjudlikning texnoraqamli shakli bo'lib, tovar va xizmatlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimli yig'indisidir. Iqtisodiy munosabatlarning texnoraqamli tabiati raqamli iqtisodiyotni boshqalardan ajratib turadigan asosiy belgilar hisoblanadi. Shunday qilib, agar yangi iqtisodiyot – postindustrial iqtisodiyot namoyon bo'lishining qonuniy shakli bo'lsa, raqamli iqtisodiyot – yangi iqtisodiyot namoyon bo'lishining evolyusion shakllaridan biri.

O'zbekistonda Raqamli iqtisodiyot platformalari tuzishda asosiy e'tiborni: telekommunikatsiyalar, energetika, transport, sog'likni saqlash, soliq va soliqqa tortish, dori-darmonlar logistikasi, ma'lumotlarni qayta ishlab, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko'chmas mulk savdosi va ishlab chiqarish kabi yo'nalishlariga qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- UNCTAD Handbook of Statistics 2020. New York and Geneva, 2020. –R. 155.
- Shavkat Mirziyoevning Saylovoldi dasturi. - <https://uzlidep.uz/news-of-party/10076>
- Mankiw G. W., Romer D., Weil D. N. A contribution to empirics of economic growth // The Quarterly Journal of Economics. –1999. –№ 2.
- Сухарев О. С. Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения. –М.: Финансы и статистика, 2010. –С. 34.
- Красилиников О. Ю. Структурные сдвиги в экономике. –Саратов: Изд-во СГУ, 2001. –С. 24.
- Эркаев А.Н. Milliy iqtisodiyotda tarkibiy siljishlar va yalpi ichki mahsulot tarkibiy shakllarini o'zgarishi. "Iqtisod va ta'lim" jurnali. –T.: 2015 yil №1 –B. 10.
- Transfer of technology. United nations conference on trade and development. –New York and Geneva, 2001. –The electronic version of the printing publication.: <http://unctad.org/en/docs>.
- OECD Directorate for Science, Technology and Industry Economic Analysis and Statistics Division, 2017. – The electronic version of the printing publication. – <https://www.oecd.org/sti/ind/>.
- Mensch G. Stalemate in Technology – Innovations Overcame the Depression. –New York: Ballinger Publishing Company, 1979. –274 p.
- Кун Т. Структура научных революций. –М.: Экономика, 1977. –С. 120.
- Dosi G. Technological Paradigms and Technological Trajectories // Research Policy. –1982. –№ 11. –P. 147-162.
- Глазев С.Ю. Экономика будущего. Ест ли у России шанс? –М.: Книжный мир, 2016. –С. 124.
- Peres K. Technologicheskie revolyusii i finansovyy kapital. –М.: Delo, 2011. –405 s.
- Axunova M. X Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamlashtirishning ahamiyati. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar: muammolar, yechimlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari 2021-yil 28-may. / Farg'ona, "AL-FERGANUS" nashriyoti. –2021. –B.17.
- Jumayev N.X. Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi: eviu.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir.